

V. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2018 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlarining soni 17261 tani tashkil qildi.

2017 yil yanvar-dekabrda yalpi hududiy mahsulotning 70,5 foizi (2016 yil yanvar-dekabrda 72,2 foiz) kichik biznes sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2017 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlari tomonidan:

- 1286,3 ming nafar kishining bandligi ta'minlandi (jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning 84,5 foizi), shu jumladan band bo'lganlarning 1057,8 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkor, 228,5 ming nafari kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi;

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 5088,7 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 55,5 foizi) yoki 2016 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 103,2 foizni tashkil qildi;

- qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan mahsulotlari (ko'rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 8978,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati 101,4 foizni (qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari yalpi mahsulotining 98,8 foizi) tashkil qildi.

- 1855,1 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 56,1 foizi) o'zlashtirildi va 2016 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 90,6 foizni tashkil qildi.

- 2171,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 92,4 foizi) bajarildi va 2016 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 111,0 foizga ko'paydi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining hajmi 941,2 mln.tn.km o'sish sur'ati 102,8 foizni (viloyat jami yuk aylanmasining 93,8 foizi) tashkil qildi, hamda yo'lovchi aylanmasining hajmi 13373,4 mln.kishini tashkil qilib o'sish sur'ati 102,7 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 97,4 foizi) ko'paydi;

- Chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 93,0 foizi yoki 8385,2 mlrd. so'mi (o'sish 100,6 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 72,4 foizi yoki 3520,0 mlrd. so'mi (o'sish 100,4 foiz) shakllantirildi;

- 212,6 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 82,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 504,4 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 60,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

2017 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi. foizda

	<i>Kichik tadbirkorlik sub'yektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'yektlari umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	8978,4	98,8
Sanoat	5088,7	55,5
Qurilish	2171,1	92,4
Chakana savdo	8385,2	93,0
Yuk tashish, mln.tn.	41,0	92,8
Yo'lovchi tashish, mln.kishi	399,9	91,6
Eksport, mln. AQSh doll.	212,6	82,5
Import, mln. AQSh doll.	504,4	60,1

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

